



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 278 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	



Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzruzkoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalardagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shaxrizoda, Keldiyorova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исломовна	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI STEAM YONDASHUVI YORDAMIDA OG'ZAKI MULOQOTGA O'RGATISH MASHQLAR TIZIMI

Yunusova Malika Miralimovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning og'zaki nutqiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, maktabgacha yosh, og'zaki muloqot, nutqni rivojlantirish, integrativ yondashuv, pedagogik eksperiment, loyihaviy faoliyat.

Abstract: This article analyzes the pedagogical potential of the STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) approach in developing oral communication skills of preschool-age children.

Key words: STEAM education, preschool age, oral communication, speech development, integrative approach, pedagogical experiment, project-based activity.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические возможности использования подхода STEAM (наука, технологии, инженерия, искусство, математика) в развитии навыков устной коммуникации у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: STEAM-образование, дошкольный возраст, устная коммуникация, развитие речи, интегративный подход, педагогический эксперимент, проектная деятельность.

KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida bolaning nutqiy rivojlanishi uning keyingi bilim olish faoliyati, ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xususan, og'zaki muloqot ko'nikmalarining o'z vaqtida va yetarli darajada shakllanmasligi bola maktabga tayyorgarligiga, tengdoshlari va kattalar bilan ijtimoiy aloqalar o'rnatishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'nggi yillarda dunyo ta'lim amaliyotida STEAM (Science - fan, Technology - texnologiya, Engineering - muhandislik, Arts - san'at, Mathematics - matematika) yondashuvi nafaqat maktab, balki maktabgacha ta'lim bosqichida ham keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvning o'ziga xosligi shundaki, u bolani passiv tinglovchidan faol izlanuvchi, kuzatuvchi va o'z fikrini bayon etuvchi subyektga aylantiradi. Aynan shu jarayonda bola tabiiy ravishda so'zlashga, savol berishga, o'z kuzatishlarini og'zaki ifodalashga undaladi [2; 452].

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, an'anaviy nutq o'stirish mashg'ulotlari ko'pincha bir yoqlama - faqat til vositalarini o'rgatishga qaratilgan bo'lib, bolaning tabiiy qiziqishini, amaliy faoliyatini va fikrlash jara-yonini yetarlicha hisobga olmaydi. STEAM yondashuvi esa nutqni fan, texnika, muhandislik va san'at faoliyati bilan uzviy bog'lagan holda rivojlantirish imkonini beradi, bu esa mashg'ulotlarni bolalar uchun yanada tabiiy va qiziqarli qiladi.

Tadqiqotning maqsadi - maktabgacha yoshdagi bolalarni og'zaki muloqotga o'rgatishning STEAM yondashuviga asoslangan mashqlar tizimini ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini eksperimental yo'l bilan asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) STEAM yondashuvining nutqni rivojlantirishdagi nazariy asoslarini tahlil qilish;
- 2) to'rt bosqichli mashqlar tizimini ishlab chiqish;
- 3) tizimni amaliyotda sinovdan o'tkazish;
- 4) olingan natijalarni statistik tahlil qilish va metodik tavsiyalar berish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni STEAM yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Mazkur yo'nalishda bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

STEAM ta'limining nazariy asoslari Y. Yakman (Yakman, 2008) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, muallif fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Arts) va matematika (Mathematics) integratsiyasi bolalarning ijodiy fikrlashi hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishini ta'kidlaydi.

J. Dewey (2018) tajribaga asoslangan ta'lim nazariyasida bolalarning faol ishtiroki va muloqot orqali bilimlarni egallashi samarali natija berishini asoslab bergan ^[3; 1070].

Maktabgacha ta'limda nutq rivojlanishini tadqiq etgan L. S. Vigotskiy (1983) til va tafakkurning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib, ijtimoiy muloqot bolaning nutqiy rivojlanishida asosiy omil ekanligini qayd etadi.

J. Piaget (1972) esa bolalarning kognitiv rivojlanishi jarayonida nutq va fikrlashning uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslagan ^[6; 309].

O'zbekistonlik olimlardan R. J. Ishmuhamedov (2017) interfaol ta'lim texnologiyalarining bolalar kommunikativ faolligini oshirishdagi ahamiyatini yoritgan ^[4; 320].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik eksperiment (aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari), bolalar nutqini baholash uchun mezonlashtirilgan suhbat va topshiriqlar, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash (o'rtacha arifmetik qiymat, foiz nisbati, Student t-mezone).

TAHLIL VA NATIJALAR

STEAM texnologiyasi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani o'zaro bog'lagan holda bolalarning nutqiy faolligini rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. An'anaviy mashg'ulotlarda bolalar asosan tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa, STEAM faoliyatlarida ular muammoni hal qilish, fikr almashish, savol berish va o'z g'oyalarini ifodalash jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylanadi (1-jadval).

1-jadval: STEAM komponentlari va ularning nutqiy muloqotga ta'siri

STEAM komponenti	Faoliyat mazmuni	Nutqiy muloqotga ta'siri	Tavsiya etilgan yosh guruhi
Fan (S)	Tabiat hodisalarini kuzatish, oddiy tajribalar o'tkazish	Sabab-oqibat bog'lanishlarini og'zaki ifodalash, tavsiflovchi lug'at boyligini oshirish	5–6 yosh
Texnologiya (T)	Multimedia va interaktiv taxta bilan ishlash	Ekrandagi obyektlarni nomlash, savol-javob shaklidagi muloqot	4–6 yosh
Muhandislik (E)	Konstruktor va bloklardan qurilmalar yasash	Loyihalashtirish jarayonini tushuntirish, guruh ichida rol taqsimoti haqida so'zlashish	5–6 yosh
San'at (A)	Rasm chizish, qo'g'irchoq teatri, rolli o'yinlar	Hissiy-ekspressiv nutq, dialogik muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish	3–6 yosh
Matematika (M)	Sanoq, o'lchov va taqqoslash mashqlari	Miqdoriy va mantiqiy fikrni og'zaki asoslash	4–6 yosh

1-jadvalda ko'rsatilganidek, har bir STEAM komponenti nutqning muayyan jihatini rivojlantirishga xizmat qiladi: fan va texnologiya kuzatuvchanlik hamda tavsiflovchi lug'atni, muhandislik loyihaviy fikrlash va izchil bayonni, san'at esa hissiy-ekspressiv nutqni shakllantiradi.

Konstruktorlar bilan ishlash, tajribalar o'tkazish, loyihalar yaratish va jamoaviy topshiriqlarni bajarish jarayonida bolalarning so'z boyligi sezilarli darajada kengayadi. Masalan, oddiy qurilish topshirig'ini bajarishda bolalar buyumlarning shakli, o'lchami, rangi va vazifasini tavsiflashga harakat qiladi. Bu esa ularning yangi so'z va iboralarni amaliy faoliyat orqali o'zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, guruhviy faoliyat davomida tengdoshlari bilan muloqot qilish zarurati bolalarni fikrlarini aniq va tushunarli bayon etishga undaydi ^[4; 320].

STEAM asosidagi mashqlar tizimida muammoli vaziyatlardan foydalanish ham muhim natijalarni berdi. Bolalar berilgan vazifani bajarish uchun o'zaro maslahatlashdi, savollar berdi va turli yechimlarni muhokama qildi. Bunday jarayonlar dialogik nutqning rivojlanishiga xizmat qildi. Ayniqsa, "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Agar shunday bo'lsa, nima bo'ladi?" kabi savollarga javob izlash bolalarda mantiqiy fikrlash bilan bir qatorda izchil nutq tuzish ko'nikmalarini ham shakllantirdi ^[5; 154].



Mashg'ulotlar natijasida bolalarning muloqotga kirishish faolligi ortgani kuzatildi. Dastlab ayrim bolalar suhbatlarda passiv qatnashgan bo'lsa, STEAM faoliyatlari davomida ular ham o'z fikrlarini erkinroq ifodalay boshladi. San'at elementlari qo'llanilgan topshiriqlar, jumladan, rasm chizish, maket yaratish va rolli o'yinlar bolalarning tasavvurini boyitib, nutqiy faolligini yanada kuchaytirdi(2-jadval).

2-jadval: Og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimining bosqichlari

Bosqich	Mashq turi	Maqsad	Davomiyligi
I. Motivatsion-kirish	“Sehrli quti” - noma'lum predmetni tavsiflash orqali taxmin qildirish o'yini	Qiziqish uyg'otish, faol lug'atni ishga tushirish	5–7 daqiqa
II. Fanlararo kuzatuv	“Nima uchun?” - oddiy tajriba (masalan, muz erishi) va uni og'zaki sharhlash	Sabab–natija bog'lanishini nutqda ifodalash	10–12 daqiqa
III. Loyihaviy-amaliy	“Kichik muhandislar” - guruhda oddiy konstruktsiya yasash va uni taqdim etish	Guruh ichidagi muloqot, fikrni izchil bayon etish	15 daqiqa
IV. Ijodiy-reflektiv	“Bizning kashfiyotimiz” - rolli o'yin va kun yakunida taassurot almashish doirasi	Hissiy nutq, o'z fikrini erkin bayon qilish, faol tinglash	8–10 daqiqa

Mashqlar tizimi haftasiga 3 marta, har biri 35–40 daqiqadan iborat integrallashgan mashg'ulotlar shaklida, 12 hafta davomida amalga oshirildi. Har bir mashg'ulot yuqorida ko'rsatilgan to'rtta bosqichni izchil o'z ichiga oldi. Bu esa bolaning bir mashg'ulot davomida kuzatish, amaliy faoliyat va ijodiy ifodalash orqali nutqini har tomonlama mashq qilish imkonini berdi.

STEAM yondashuvi asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi maktabgacha yoshdagi bolalarning og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv bolalarda so'z boyligini kengaytirish, muloqot madaniyatini shakllantirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM elementlariga asoslangan nutqiy mashqlarni keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarni og'zaki muloqotga o'rgatishda STEAM yondashuviga asoslangan to'rt bosqichli mashqlar tizimining yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Tajriba guruhida barcha nutqiy ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori o'sish qayd etildi, bu esa ilgari surilgan gipotezaning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Amaliyotchi tarbiyachilar uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

- mashg'ulotlarni motivatsion-kirish, fanlararo kuzatuv, loyihaviy-amaliy va ijodiy-reflektiv bosqichlar asosida tuzish;
- har bir bosqichda bolaning mustaqil so'zlashi, savol berishi va fikr bildirishi uchun sharoit yaratish;
- guruh faoliyatini ustuvor shaklda tashkil etish, chunki hamkorlikdagi faoliyat nutqiy faolligni oshiradi;
- natijalarni muntazam kuzatib borish va mashqlar tizimini bolalar ehtiyojiga moslab tahrirlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. - Toshkent, 2022.
2. Bybee R. W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. - Arlington: NSTA Press, 2013. 452b
3. Yakman G., Lee H. Exploring the exemplary STEAM education in the U.S. as a practical educational framework for Korea // Journal of the Korean Association for Science Education. - 2012. - Vol. 32(6). - P. 1072-1086.
4. Xasanboyeva O. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2019. 320
5. Sharipova D. Maktabgacha ta'limda integrativ yondashuvlar: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2021. 154b
6. Sahin A., Ayar M. C., Adiguzel T. STEM related after-school program activities and associated outcomes on student learning // Educational Sciences: Theory & Practice. - 2014. - Vol. 14(1). - P. 309–322.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.